

**“Kapitalbank” ATBda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi
tadbirkorlarga kompleks bank xizmati ko‘rsatish to‘g‘risida
kelishuvning
14-ILOVASI**

**Internet orqali xalqaro to‘lov tizimi kartalarida elektron tijorat xizmatlarini taqdim etish
TARTIBI**

I. QO‘SHIMCHA ATAMA VA TA‘RIFLAR:

1.1. Ushbu Tartibda qo‘yidagi atama va ta‘riflardan foydalaniladi:

Avtorizatsiya – Internet-maydonchada Kartadan foydalangan holda operatsiyalar o‘tkazish uchun SXX tomonidan XTTga so‘rov yuborish va ruxsat olish jarayoni. Tasdiq har bir aniq operatsiyani identifikatsiya qiluvchi unikal kodni o‘z ichiga oladi. SXX tomonidan XTTdan olingan javobda kodning mavjudligi Karta foydalanib operatsiya o‘tkazilishiga ruxsatni anglatadi.

ADM – XTT operatsiyalarini, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga Bankda o‘rnatilgan Internet orqali to‘lovlar bo‘yicha operatsiyalarni qayta ishlash bo‘yicha maxsus avtomatlashtirilgan dasturiy majmua.

Internet-maydoncha – SXXga Internet orqali tovarlar (xizmatlar, ishlar)ni sotib olish uchun buyurtmalar qabul qilishga va xizmat ko‘rsatishga imkon beruvchi Internet tarmog‘idagi Saytni o‘z ichiga oluvchi, SXX yoki uning hamkorlari Internet-manbaasi

Karta –Emitent tomonidan uning Saqlovchisiga (xalqaro karta hisobvarag‘i egasi) emissiya qilingan XTT himoyasi ostidagi bank to‘lov kartasi.

Transaksiya – Saqlovchi (xalqaro karta hisobvarag‘i egasi) tomonidan albatta Avtorizatsiya o‘tkazish sharti bilan Karta yordamida xorijiy valyutada amalga oshiriladigan naqd pulsiz operatsiya.

XTT - Bank bilan xizmat ko‘rsatish bo‘yicha bitim mavjud bo‘lgan yetakchi xalqaro to‘lov tizimi.

Sayt – Internetga ulangan va tegishli texnik vositalarga ega foydalanuvchiga ushbu ma‘lumotlarga kirishga imkon beruvchi, qoida tariqasida, bir mavzu va/yoki maqsad doirasida birlashtirilgan ma‘lumotlar, ularni taqdim qilish usullari va texnik vositalar yig‘indisi

Standartlar – shu jumladan, xavfsizlikni ta‘minlash qismi bo‘yicha XTT tomonidan tasdiqlagan xalqaro standartlar (3DSecure, VerifiedbyVisa, MasterCard SecureCode, UCAF, SecurePay, BCCard/Smartro).

Qoidalar – ushbu Tartibning ajralmas qismi hisoblangan, SXX tomonidan Xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha qo‘llanma.

Xizmatlar – XTT kartalari bo‘yicha Standartlarga asosan ko‘rsatiladigan elektron tijorat xizmatlari.

Ekvayer - XTTning ishtirokchisi bo‘lgan va Kartalardan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar bo‘ymcha SXX bilan hisob-kitoblarni ta‘minlaydigan moliya instituti.

Emitent - XTTning ishtirokchisi bo‘lgan va Kartalarni emissiya qiluvchi moliya instituti.

PCI DSS – SXX tomonidan ko‘llanilishi majburiy bo‘lgan to‘lov tizimlarining xavfsizlik standarti.

1.2. Ushbu Tartibda foydalaniladigan atama va ta‘riflar Kelishuvdagi mazmun bilan bir xil mazmunga ega.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Tartib Xalqaro to‘lov tizimlari kartalarida Internet orqali elektron tijorat xizmatlarini taqdim etishga Mijoz tomonidan qo‘lda (qog‘oz shaklida) yoki ERI bilan (IBK tizimi bo‘yicha elektron shaklda) imzolangan Arizaga (keyingi o‘rinlarda “Ariza” deyiladi) asosan Taraflar uchun majburiy bo‘ladi (kuchga kiradi) va Mijoz tomonidan Kartadan foydalanib to‘lovlarni qabul qilish hamda pul mablag‘larini Mijozning hisobvaraqlariga ko‘chirib berish maqsadida ADMni qo‘llagan holda bunday Transaksiyalarning o‘tkazilishini Bank tomonidan tashkil qilinishi natijasida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni Saytda yoki Internet-maydonchasida realizatsiya qilish munosabati bilan Bank va Mijoz o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. Ushbu Tartib, Kelishuv, Bank Tariflari, shuningdek, Ariza birgalikda VISA Xalqaro to‘lov tizimlari kartalarida Internet orqali elektron tijorat xizmatlarini taqdim etish Shartnomasini (keyingi o‘rinlarda – “Shartnoma”) tashkil qiladi

III. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Bankning majburiyatlari:

3.1.1. Saytda yoki Internet-maydonchada tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga Kartalardan foydalanib to‘lov qilish bo‘yicha operatsiyalarni o‘tkazish maqsadida Mijozning ADMga kirishini ta‘minlash;

3.1.2. Ushbu Tartibning 3.1.1. bandida ko‘rsatilgan ADMni ko‘llagan holda Saytda yoki Internet-maydonchada Kartadan foydalanib Transaksiyalar o‘tkazilishini kechayu-kunduz rejimda (24/7) tashkil qilish;

3.1.3. qonuniy Karta saqlovchilari tomonidan o‘tkazilgan avtorizatsiya qilingan Transaksiyalarni Mijozdan qabul qilish va qayta ishlashni tashkil qilish;

3.1.4. Karta vositasida to'langan pul mablag'larini XTT tomonidan qo'yilgan avtorizatsiya qilingan Trasaksiyalar Bank tomonidan qayta ishlangan sanadan 5 bank kuni ichida Bank Tariflariga asosan SXX hisobvarag'iga, Mijozning hisobvarag'iga ko'chirib berish, ushbu Tartibning 3.2.7-3.2.8 va 3.2.9 bandlarida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno;

3.1.5. Shartnoma shartlarini bajarilishi natijasida SXX va Karta saqlovchilarning Bankka ma'lum bo'lib qolgan bank va tijorat sirini saqlash;

3.1.6. Saytda yoki Internet-maydonchada tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga Karta bilan to'lov qilish bo'yicha operatsiyalarning xavfsiz o'tkazilishini ta'minlash.

3.2. Bankning huquqlari:

3.2.1. SKXning qo'shimcha farmoyishlarisiz (akseptsiz) SKXning Bankdagi hisobvaraqlaridan Bank Tariflarida nazarda tutilgan vositachilik haqlarini, shuningdek, XTTdan ushbu SXX bo'yicha qo'yilgan boshqa vositachilik haqi va ko'yilmalarni ("Chargeback" va "Representment", "Pre-Compliance", "Pre-Arbitration" kabilar) yechib olish, boshqa banklardagi hisobvaraqlariga (akseptsiz) to'lov talabnomasi qo'yish;

3.2.2. Mijoz tomonidan ushbu Tartibning 2-Ilovasi, shuningdek, ushbu Tartibning 4-bo'limi bandlarida keltirilgan majburiyatlar buzilganda, Transaksiyalarni Avtorizatsiyadan o'tkazishni bir tomonlama to'xtatish;

3.2.3. Transaksiyalarni Avtorizatsiyadan o'tkazish to'xtatilganligi haqida 2 (ikki) ish kuni ichida Mijozga tegishli yozma xabarnoma jo'natish;

3.2.4. Kartalar bilan firibgarlik operatsiyalarini aniqlash, Mijoz tomonidan xaridorlarga Bank bilan kelishilmagan tovarlarni (ishlar, xizmatlar)ni taqdim qilinishi va soxta saytlar yoki Internet-maydonchalar bo'yicha Mijozda XTT va/yoki Mijoz bilan/bir tomonlama rejali/rejadan tashqari audit o'tkazish;

3.2.6. Saytda yoki Internet-maydonchada realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ma'lum qilingan faoliyatga mos bo'lmasa, va/yoki ushbu Tartibning 4-Ilovasiga asosan ta'qiqlangan tovarlar ro'yxatida bo'lsa va/yoki Sayt/Internet-maydoncha noqonuniy harakatlar, shu jumladan, pul mablag'larini naqdlashtirish/yuvish bilan shug'ullanganlik holatlari aniqlanganda barcha Avtorizatsiyalarni darhol bloklash;

3.2.7. Nizoli vaziyatlar kelib chiqqanda, Bank o'tkazilgan Transaksiyalar bo'yicha "Fraud Report" (firibgarlik haqida hisobot) yoki "Shargeback"/ "Finance Dispute" (Transaksiyani rad qilish)/ "representment" (transaksiyani takroriy rad qilish) olgan bo'lsa, XTT qoidalari bo'yicha bir oydan to'rt oygacha vaqtni olishi mumkin bo'lgan barcha holatlar aniqlangunga qadar Mijozga pul mablag'larini qoplamaslik;

3.2.8. "FraudGuard" yoki "Visa Fraud Monitoring Program" monitoring dasturiga tushgan shubhali Transaksiyalar Emitentga so'rov yuborish orqali to'liq tekshirilgunga qadar Mijozning hisobvarag'iga pul mablag'larini kirim qilishni to'xtatib turish (muzlatish);

3.2.9. XTT tomonidan Mijoz Transaksiyalarida shubhali faollashish va brendni himoya qilish bo'yicha ish qo'zg'atilganligi aniqlanganda yoki XTT shubhali Transaksiyalari monitoringi dasturi bo'yicha chegara limiti oshib ketganida pul mablag'larini emitent-banklarga qaytarish;

3.2.10. "3D Secure" Avtrizatsiyasini qo'llab-quvvatlamaydigan Kartalardan Avtorizatsiya o'tkazish huquqini o'zida qoldiradi;

3.2.11. Shartnomaning amal qilish muddatini bir tomonlama to'xtatish va pul mablag'lari bilan operatsiyalar o'tkazishni rad qilish, agar:

- Mijoz tomonidan qasddan soxta hujjatlar taqdim qilinganda yoki Mijozni identifikatsiya qilish to'g'risidagi qonunchilikka asosan Bank tomonidan so'raladigan pul mablag'larining va (yoki) Mijozning boshqa mol-mulki kelib chiqishi to'g'risida hujjatlar taqdim qilinmaganida;

- Bankda Mijoz va/yoki Benefitsiar mulkdor tomonidan Shartnomadan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmi moliyalashtirish maqsadida foydalanish bo'yicha asoslangan shubhalar bo'lsa;

- Bankda Mijozning terroristik yoki boshqa jinoiy faoliyatda qatnashganligi yoki qatnashishda gumon qilinishi haqida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan olingan ma'lumotlar mavjud bo'lsa;

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda hisobvaraqa mavjud pul mablag'lariga ta'qiq solish yoki hisobvaraqa bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish;

3.2.12. Amaldagi qonunchilikka asosan shaxslar Ro'yxatga tushsa, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va "Kapitalbank" ATBning lokal hujjatlarida o'rnatilgan tartibda Mijozning roziligisiz pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni muzlatish va/yoki to'xtatib turish (pul mablag'larini kirim qilish bo'yicha operatsiyalar bundan mustasno). Pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni muzlatilganida va (yoki) to'xtatib qo'yilganida, Mijozning topshirig'iga asosan Pul mablag'larini hisobvaraqdan o'chirish amalga oshirilmaydi;

3.2.13. XTT bilan aloqa mavjud bo'lmaganda Xizmatlar ko'rsatishni to'xtatish.

3.3. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

IV. MIJozNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Mijozning majburiyatlari:

4.1.1. ushbu Tartibning 2-Ilovasida ko'rsatilgan qoidalarni bajarish;

4.1.2. Internet-maydoncha yoki SAYTning XTT PCI DSS xavfsizlik standartiga muvofiqlik sertifikatini taqdim qilinishini ta'minlash;

4.1.3. tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga to'lovlarni Kartalar vositasida, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga naqd pulda to'lov qilinganda to'lanadigan narxdan oshmaydigan narxda qabul qilish;

4.1.4. Saqlovchi (xalqaro karta hisobvarag'i egasi) tovarlar (ishlar, xizmatlar) ni rad qilganida, mablag'larni Qoidalarga asosan qaytarilishini ta'minlash, bunda mablag'larni qaytarish quyidagi ko'rinishda amalga oshirilishi mumkin:

- bekor qilingan Transaksiyalar – Transaksiyalarning inkassatsiya paketi yuborilgunga qadar Bankning va/yoki XTTning maxsus saytidagi SXXning shaxsiy sahifasi orqali elektron ko'rinishda;

- qaytarilgan Transaksiyalar – elektron yoki ushbu Tartibning 3-Ilovasiga asosan "Mablag'larni qaytarish haqida buyurtmanoma shakli" ko'rinishida, shu jumladan, bekor qilingan Transaksiyalarni rasmiylashtirishning imkoni bo'lmasa;

4.1.5. Xaridorlar ma'lumotlarining maxfiyligini va ushbu Tartibning 2-Ilovasi 4,5 bo'limlari, shuningdek, xavfsizlik masalalarini tartibga soluvchi va Bank Saytida firibgarlik bilan kurashish tartibi bo'limlariga muvofiq to'lovlar xavfsizligini ta'minlashga aloqador ma'lumotlarni Saytda joylashtirish;

4.1.6. Kartadan foydalanib amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma'lumotlarni (reyestrlar, xaridorlarning tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni olganligi haqidagi tilxati, Kartani debetlashga topshiriq va boshq.) hamda amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha hisobotlarni Transaksiya amalga oshirilgan sanadan 18 oy kam bo'lmagan muddatda saqlash va Bankning birinchi talabi bilane ularni berish;

4.1.7. Saytning yoki Internet-maydonchani to'lov sahifasi dizaynini, ushbu Tartibning 1-Ilovasida ko'rsatilgan XTT belgisi bor reklama stikerlarning elektron variantini ham Bank bilan kelishish;

4.1.8. Bankka majburiy tartibda ushbu ma'lumotlarni taqdim qilish:

- Sayt yoki Internet-maydoncha(lar)si tomonidan xaridorlarga taqdim qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati haqidagi ma'lumotlarni har bir tovar (ish, xizmat)ning, tovar (ish, xizmat) jo'natish bo'yicha pochta xizmati kvitansiyasining eng kam o'rtacha/en ko'p narxini ko'rsatgan holda;

- Sayt yoki Internet-maydoncha(lar)ning domen nomi va ulardagi har qanday o'zgarishlar haqida;

- Transaksiya amalga oshirilgan Sayt yoki Internet-maydoncha(lar)ning IP-manzillari haqidagi ma'lumotlar va ulardagi har qanday o'zgarishlar haqida;

4.1.9. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan sotish/taqdim qilish ta'qiqlangan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni realizatsiya qilmaslik. Ta'qiqlangan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati ushbu Tartibning 4-Ilovasida keltirilgan;

4.1.10. Bankka va/yoki XTTga har bir Saytning yoki Internet-maydonchani elektron jurnallariga va/yoki operatsiyalarni ro'yxatga olish ma'lumotlar bazasiga doimiy kirishga ruxsat berish;

4.1.11. Bank tomonidan o'rnatilgan muddatlarda Bankka Kartalar bilan firibgarlik sodir etilganligiga va/yoki SXX tomonidan Bank bilan kelishilmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) taqdim qilinganligiga shubha uyg'otgan operatsiyalar bo'yicha hisobot taqdim qilish;

4.1.12. Sayt yoki Internet-maydonchani qadrsizlanishga (noqonuniy harakatlar natijasida uchinchi shaxslarning mijozlar va ularning Kartalari haqidagi ma'lumotlarga kirishi) olib kelishi mumkin bo'lgan viruslar va zaif Taraflar, zarar yetkazuvchi, reklama dasturlari va troyanlar mavjudligiga muntazam tekshirish;

4.1.13. To'lov rekvizitlari, taqdim qilinadigan ishlar, xizmatlar va sotiladigan tovarlar xususiyati bilan bog'liq barcha o'zgarishlar haqida, hujjatlar va Bankka oldin taqdim qilingan SXX to'g'risidagi boshqa ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida Bankka darhol yozma ravishda xabar qilish;

4.1.14. Shartnoma shartlarini bajarish natijasida Bankning va Karta saqlovchilarning SXXga ma'lum bo'lgan bank va tijorat sirini saqlash;

4.1.15. ushbu Tartibning 5-Ilovasida keltirilgan tashkilot faoliyati haqidagi to'ldirilgan Shaklni taqdim qilish;

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. Saytda yoki Internet-maydonchada tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun Kartalardan foydalanib amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha operatsiyalar summasini 3.1.4-bandga (ushbu Tartibning 3.2.7-3.2.8 va 3.2.9 bandlarida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno) asosan o'z vaqtida kirim qilinishini Bankdan talab qilish;

4.2.2. Bank bilan yozma ravishda kelishgan holda o'zining reklama mahsulotlarida Kartalarga xizmat ko'rsatish imkoniyatini havola qilish, XTT savdo belgilari bilan birgalikda reklama mahsuloti chiqarish.

4.3. Taraflar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

V. MOLYAVIY SHARTLAR

5.1. Bankning Mijoz bilan o'zaro hisob-kitobi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga asosan, Shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda AQSH dollarida amalga oshiriladi.

5.2. Transaksiyaning qayta ishlangan Avtorizatsiyasi asosida Mijoz tomonidan pul mablag'larini kirim qilish/ko'chirib berish Mijoz tomonidan o'tkazilgan operatsiyaning haqiqiylikini Bank tomonidan so'zsiz tan olinganligini bildirmaydi.

5.3. Mijoz Transaksiyalarni ikki yoki undan ortiq Avtorizatsiyadan o'tkazish orqali bitta xarid (ishlar, xizmatlar) qiymatini bo'lib tashlash yoki xaridning (ishlar, xizmatlar) bir qismi qiymati uchun boshqa to'lov vositalari bilan muqobil to'lovni qabul qilish huquqiga ega emas.

5.4. Saytda yoki Internet-maydonchada tovarlar (xizmatlar, ishlar) uchun Kartalardan foydalanib to'lov bajarilgan to'lov operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirilganligi uchun har safar qoplama summasidan Bankning Tariflarida ko'rsatilgan miqdorda Mijozning XTT xizmatlarini Yetkazib beruvchilarning xarajatlari va vositachilik haqi undiriladi.

VI. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI

6.1. Taraflar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga asosan javobgar bo'ladi.

6.2. Bir Taraf Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganida ikkin Taraf aybdor Tarafdin o'ziga olgan majburiyatlarni bajarilishini, shuningdek, unga yetkazilgan zararlarni qoplashni talab qilishi mumkin.

6.3. Bank tomonidan ushbu Tartibning 3.1.4-bandida belgilangan mablag'larni ko'chirib berish muddati buzilganda, Bank Mijozga har bir kechiktirilgan kun uchun ko'chirib berilishi lozim bo'lgan summaning 0,1 % miqdorida, biroq, muddatida ko'chirilmagan summaning 50 (ellik) %idan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'lash majburiyatini oladi.

6.4. Ushbu Tartibning 3.2.6-bandida ko'rsatilgan holatlardan biri yoki ularning barchasi tasdiqlansa, Mijoz Bankka nomaqbul tovar (ishlar, xizmatlar) summasining 5 % miqdorida jarima to'laydi.

6.5. Mijoz o'z xodimlarining Shartnoma, shu jumladan, uning ilovalari shartlarini buzishi bilan bog'liq harakatlari uchun, agar bu harakatlar Mijozning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmasligiga yoki lozim darajada bajarmasligiga olib kelgan bo'lsa, javobgar bo'ladi.

6.6. Mijoz Saytga yoki Internet-maydoncha(lar)ga xakerlik xujumi natijasida, shu jumladan, ushbu Tartibning 4.1.2., 4.1.5., 4.1.10., va 4.1.11. bandalarini bajarmaslik oqibatida kelib chiqqan mijozlar va ularning Kartalari ma'lumotlarining oshkor bo'lganligi uchun va noto'g'ri rasmiylashtirilgan hamda XTT qoidalarini buzgan holda amalga oshirilgan har qanday Transaksiyalar uchun to'liq va so'zsiz javobgar bo'ladi. Bunda holda Bank unga nisbatan XTT tomonidan qo'llanilgan jarima sanksiyalari miqdoridagi mablag'larni Mijozning hisobvarag'idan nizosiz yechib oladi.

6.7. BANK quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

- ushbu Tartibning 3.2.3. bandida nazarda tutilgan hollarda Transaksiyalarni Avtorizatsiyadan o'tkazish to'xtatilishi bilan bog'liq Mijozning ehtimoliy zararlari uchun;

- noto'g'ri rasmiylashtirilgan hamda XTT qoidalarini buzgan holda amalga oshirilgan har qanday Transaksiyalar uchun;

- Transaksiyalar XTT standartlariga asosan amalga oshirilganligi belgilangan yoki isbotlangan bo'lsa ham buzilgan Kartalar bo'yicha Transaksiyalar bo'yicha;

- Bankning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarishi uchunchi shaxslarning va/yoki XTT xizmatlarini Yetkazib beruvchining muayyan harakatlariga bog'liq bo'lsa yoxud bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaslik uchunchi shaxslarning va/yoki XTT xizmatlarini Yetkazib beruvchilarning zarur harakatlarni bajara olmaganligi yoki bajarishni rad qilganligi yoxud ularni belgilangan tartibni buzib amalga oshirganligi bilan bog'liq bo'lsa.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

7.1. Shartnoma Mijoz tomonidan Buyurtmanoma berilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va taraflar o'z majburiyatini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

7.2. Shartnoma bekor qilinganida yoki to'xtatilganida Bank Tariflariga asosan vositachilik haqi to'lovlari Mijozga qaytarilmaydi.

7.3. Shartnoma bilan bog'liq nizolar taraflar tomonidan muzokara yo'li bilan o'zaro hal qilinadi. Nizolarni muzokara qo'li bilan hal qilishning imkoniyati bo'lmagan hollarda, nizolar Kelishuvda belgilangan tartibda hal etiladi.

7.4. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan Bank va Mijoz o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Kelishuv bilan tartibga solinadi.

7.5. Shartnomaning o'zi, Amaldagi qonunchilik, Qoidalar, XTTning standartlari va tavsiyalari, agar ular O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid bo'lmasa, Shartnoma doirasida Taraflarning munosabatlarini huquqiy tartibga solish manbaalari bo'lib hisoblanishiga Taraflar rozi. Shartnomaning Qoidalarning qoidalariga (Shartnoma tuzilgan vaqtda ma'lum bo'lganiga ham, kelajakda ishlab chiqiladiganiga ham) zid bo'lgan har qanday shartlari va qoidalari Qoidalarga muvofiq lashtirilishi kerak.

**Internet orqali xalqaro to'lov tizimi kartalarida elektron tijorat
xizmatlarini taqdim etish Tartibiga**

1-Ilova

**Savdo-xizmat ko'rsatish korxonalari saytlari/internet-maydonchalari va kartalari to'lovga qabul
qilinuvchi xalqaro to'lov tizimlarining
RO'YXATI**

Manzili va telefon raqamini ko'rsatgan holda Mijoz SAYTI/INTERNET-MAYDONCHASINING nomi	<hr/> <hr/>	
Kartalari to'lovga qabul qilinuvchi XALQARO TO'LOV TIZIMINING NOMI, NAIMENOVANIE MEJDUNARODNOY PLATEJNOY SISTEMЫ (ishlash rejalashtirilayotgan tizimni belgilang)	<input type="checkbox"/> Visa <input type="checkbox"/> MasterCard <input type="checkbox"/> China UnionPay	<input type="checkbox"/> AMEX <input type="checkbox"/> JCB <input type="checkbox"/> BC Card / Smartro
SXKning rasmiy SAYTI/INTERNET-MAYDONCHASI	<hr/> <hr/>	

TARAFLARNING IMZOSI

Bank nomidan:

Mijoz nomidan:

Boshqaruvchi

Rahbar

FISH

imzo

FISH

imzo

Bosh buxgalter

Bosh buxgalter

FISH

imzo

FISH

imzo

M.O'.

M.O'.

**Internet orqali xalqaro to'lov tizimi kartalarida elektron tijorat
xizmatlarini taqdim etish Tartibiga
2-Ilova**

**Internet orqali xalqaro to'lov tizimi kartalarida elektron tijorat xizmatlarini taqdim etish
QOIDALARI**

1. XTT kartalarida elektron tijorat xizmatlarini taqdim etish Shartnomasi bo'yicha o'zaro ishlash Tartibi.

- 1.1. XTT XIZMATLARINI YETKAZIB BERUVCHINING tizimida ishlash haqidagi ma'lumot _____ manzilda joylashgan.
- 1.2. BANK ko'rsatilgan rekvizitlar bo'yicha BANKNING maxsus ADMida INTERNET-MAYDONCHANI ro'yxatga olish uchun zarur harakatlarni amalga oshiradi.
- 1.3. XARIDOR Internet orqali SAYTGA/INTERNET-MAYDONCHAGA ulanadi, buyurtmanomani shakllantiradi va uni keyinchalik qayta ishlash uchun SAYTNING/INTERNET-MAYDONCHANING maxsus apparat dasturiy majmuasiga yuboradi.
- 1.4. SAYT/INTERNET-MAYDONCHA buyurtmanomani PROVAYDERNING ADMi orqali qayta ishlaydi va XTT XIZMATLARINI YETKAZIB BERUVCHIning talablariga qarab, to'lov maqsadi belgilarini va TRANAKSIYANI XTT XIZMATLARINI YETKAZIB BERUVCHIning ADMiga yuboradi.
- 1.5. XARIDOR to'lov sxemasini (3D-Secure, VerifiedbyVisa, MasterCard SecureCode, UCAF, SecurePay, BCCard/Smartro) tanlaydi va zarurat bo'lsa, CVC2 yoki CVV2 belgilarini, kartani amal qilish muddati sanasini, shaxsiy ma'lumotlarini ham qo'shib KARTASIning belgilarini XTT XIZMATLARINI YETKAZIB BERUVCHIning ADMiga yuboradi, ushbu holat buyurtmanomani to'lov qilishga rozilikni tasdiqlash hisoblanadi.
- 1.6. XTT XIZMATLARINI YETKAZIB BERUVCHI XARIDOR kartasining kiritiladigan belgilari formatining to'g'riligini tekshiradi va qo'llab-quvvatlanadigan to'lov sxemasiga (3D-Secure, VerifiedbyVisa, MasterCard SecureCode, UCAF, SecurePay, BCCard/Smartro) qarab autentifikatsiyaning qo'shimcha jarayonlarini amalga oshiradi.
- 1.7. Olingan so'rov o'rnatilgan normativlarga to'g'ri kelganda, XTT XIZMATLARINI YETKAZIB BERUVCHI operatsiyani AVTORIZATSIYA qilish uchun so'rovni BANKKA yuboradi.
- 1.8. BANK ro'yxatga olishga asosan SAYTNING/INTERNET-MAYDONCHANING operatsiya o'tkazishga huquqini tekshiradi.
- 1.9. BANK tegishli XTTda o'rnatilgan tartibda TRANSAKSIYANI AVTORIZATSIYADAN o'tkazadi.
- 1.10. BANK tomonidan TRANSAKSIYA AVTORIZATSIYASI bo'yicha salbiy natijalari olinsa, BANK rad qilish haqidagi xabarnomani, o'z navbatida, ushbu ma'lumotni SAYT/INTERNET-MAYDONCHA va XARIDORGA rad qilish sabablarini ko'rsatgan holda yuboruvchi XTT YETKAZIB BERUVCHISINING ADMiga yuboradi.
- 1.11. TRANSAKSIYA AVTORIZATSIYASI bo'yicha ijobiy natija bo'lganda BANK ijobiy natijaning tasdig'ini XTT YETKAZIB BERUVCHISINING ADMiga yuboradi.
- 1.12. XTT YETKAZIB BERUVCHISI bir vaqtning o'zida operatsiya AVTORIZATSIYASINING ijobiy natijalari tasdig'ini SAYT/INTERNET-MAYDONCHA va XARIDORGA yuboradi.
- 1.13. Operatsiya AVTORIZATSIYASINING ijobiy natijalari tasdig'i olingandan so'ng SAYT/INTERNET-MAYDONCHA XARIDORGA xizmat ko'rsatadi (ishlarni bajaradi, tovarni beradi).
- 1.14. BANK mablag'larni SHARTNOMAGA asosan SXXning Bankdagi hisobvarag'iga ko'chirib beradi.
- 1.15. SXXga mablag'larni ko'chirib berish, AVTORIZATSIYA qilingan TRANSAKSIYALARINING yuborilgan inkassatsiya paketi SHARTNOMANING 3.1.4.bandida ko'rsatilgan muddatlarda BANK tomonidan qayta ishlanganidan so'ng amalga oshiriladi.

2. TRANSAKSIYALARni qaytarishni yoki bekor qilishni rasmiylashtirish.

2.1. TRANSAKSIYALARni qaytarishni yoki bekor qilishni rasmiylashtirish standart holatlarda SXXning shaxsiy sahifasi orqali elektron usulda yoki SHARTNOMAning 3-Ilovasidagi shakl bo'yicha ariza berish yo'li bilan rasmiylashtiriladi.

3. Nostandard holatlarda operatsiyalarni qayta ishlash

3.1. Texnik va boshqa sabablarga (masalan SXX xodimlarining xatosi) ko'ra operatsiyani Shartnomada bayon qilingan tartibga muvofiq doimiy vositalar bilan amalga oshirish va qayta ishlashning imkoni bo'lmasa, SXX bunda operatsiyani BANKning texnik vositalari bilan qayta ishlash (tovarlar (ishlar,xizmatlar) uchun to'lov operatsiyasini, to'lovni qaytarish, bekor qilish yoki to'lovni qaytarishni bekor qilishni amalga oshirish), qaytarish haqidagi iltimosnoma bilan murojaat qilish huquqiga ega.

3.2. To'lov operatsiyasini, to'lovni bekor qilishni yoki oldin amalga oshirilgan qaytarishni qayta ishlash uchun SXX SHARTNOMAning 3-Ilovasidagi shakl bo'yicha Bankka ariza yuboradi, shuningdek, SXXda mavjud cheklar, elektron yozuvlar va bunday operatsiyani qayta ishlash zaruratini asoslovchi boshqa hujjatlarni ilova qiladi. Ariza imzolar namunasi va muhr izi qo'yilgan varaqchaga asosan imzo qo'yishga huquqi bor shaxslar tomonidan imzolanadi va SXXning muhri qo'yiladi.

3.3. Buyurtmanomani ko'rib chiqish natijalari bo'yicha BANK buyurtmanomada ko'rsatilgan operatsiyalarni qayta ishlashni amalga oshirish yoki sabablarini tushuntirmagan holda qayta ishlashni rad qilish huquqiga ega; ushbu holatda bunday operatsiyani qayta ishlanishi natijasida pul mablag'larining kirim qilinganligi/hisobdan chiqarilganligi holati ushbu operatsiyaning haqiqiyliги BANK tomonidan so'zsiz tan olinishi deb hisoblanmaydi.

4. To'lovlar xavfsizligi

4.1. To'lovlar xavfsizligi BANKNING va XTT XIZMATLARI YETKAZIB BERUVCHISINING XTT tomonidan ishlab chiqilgan zamonaviy protokollar va texnologiyalar (3DSecure, UCAF, SecureCode) asosida faoliyat ko'rsatuvchi ADMLari yordamida ta'minlanadi.

4.2. XTT XIZMATLARI YETKAZIB BERUVCHISINING tizimida XARIDORning maxfiy ma'lumotlari xavfsizligi SSL protokola qo'llash orqali ta'minlanadi.

4.3. Ma'lumotlarni keyinchalik yuborish maxfiy moliyaviy ma'lumotlarni yetkazib berish uchun XTT tomonidan sertifikatatsiya qilingan ma'lumotlar yuborishning yopiq tarmog'i orqali amalga oshiriladi.

4.4. XARIDORning olingan maxfiy ma'lumotlarini (KARTA rekvizitlari, ro'yxatga olish ma'lumotlari) qayta ishlash protsessing markazida amalga oshiriladi.

5. Yuboriladigan ma'lumotlarning xavfsizligi

Yuboriladigan ma'lumotlarning xavfsizligi Internetda xavfsizlikni ta'minlashning zamonaviy protokollari(SSL/TLS) yordamini ta'minlanadi

6. 3D-SECURE xavfsizlik porotokoli bo'yicha ISHLASH SXEMASI.

3D-SECURE xavfsizlik porotokolidan ishlatishda to'rtta taraf qatnashadi:

SXX Verified By Visa yoki MasterCard SecureCode dasturlari doirasida xizmatga ulangan bo'lishi va "Verified By Visa" i "MasterCard SecureCode" brendlarini o'zining veb-saytlarida joylashtirish kerak.

EMITENTLAR transaksiya jarayonida mijoz shaxsini autentifikatsiya qilish uchun, shuningdek, elektron usulda imzolangan kvitansiyalarni boshqarish uchun ishlatiladigan kirishni nazorat qiluvchi Serverlardan (Access Control Server – ACS-Server) foydalanishi kerak.

KARTA SAQLOVCHILAR 3D-Secure ulangan bo'lishi kerak. Karta Saqlovchisi autentifikatsiya jarayonida parolni va xavfsizlik haqidagi boshqa ma'lumotni kiritishi kerak.


Katalog Serveri (Directory Server). XTT, 3D-Secure yetkazib beruvchilari identifikatsion ma'lumotlar va Verified By Visa i MasterCard SecureCode dasturlari doirasida xizmatlar emitent-ishtirokchilarining ACS-serverlari manzillari uchun o'zaro aloqa domeni vazifasini bajaruvchi Katalogning markaziy Serveridan foydalanadilar.

6.1. To'lov ishtirokchilari Autentifikatsiyasi

Loyiha doirasida ko'llab-quvvatlanadigan Internet tarmog'idagi tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar o'tkazish texnologiyasi, XTTning Visa (Visa 3D-Secure xususiyati, marketing dasturining nomi- Verified by Visa) va MasterCard (SPA/UCAF xususiyati, marketing dasturining nomi- MasterCard SecureCode) kabi joriy tasniflariga asoslanadi.

Firibgarlik operatsiyalarining va Internetda elektron bitimlar ishtirokchilarining moliyaviy yo'qotishlarining oldini olish bo'yicha yetarli xavfsizlik darajasini ta'minlash uchun ikkala tasnif ham bitta asosiy tamoyilga – to'lov ishtirokchilarining o'zaro autentifikatsiyasi tamoyiliga asoslanadi.

Ushbu tamoyil uch domen modelidan foydalanish orqali joriy etilgan (1 rasimga qarang).



1-Rasm. 3D-Secure protokoli bo'yicha Autentifikatsiyani uch domen modelidan foydalanib joriy qilish.

Har bir aytilgan domenning vazifasi quyidagicha:

Emitent domeni (Issuer domain) – uning vazifasi shunda ifodalanadiki, avtorizatsiya o'tkazishdan, ya'ni, kartaning to'lovga qobiliyatini tekshirishdan oldin ushbu kartani chiqargan emitent-bank, xaridor – ushbu karta saqlovchisining autentifikatsiyasini o'tkazadi, bu orqali xaridor shaxsining haqiqiylikni tasdiqlaydi. Natijada autentifikatsiyaning va transaksiyaning haqiqiylik uchun javobgarlik to'liq emitent-bank zimmasida bo'ladi.

Ekvayer domeni - (Acquirer domain) - uning vazifasi shunda ifodalanadiki, xizmat ko'rsatuvchi bank o'zi tomonidan o'rnatilgan qoidalar va usullar asosida o'z savdo nuqtasining autentifikatsiyasini o'tkazadi (ya'ni, bu holatda elektron do'konni autentifikatsiya qilish uchun barcha javobgarlik savdo nuqtasiga xizmat ko'rsatuvchi bankning zimmasida bo'ladi).

O'zaro aloqa domeni (Interoperability domain) - uning vazifasi shunda ifodalanadiki, EMITENT va EKVAYER domenlari o'rtasida bir birini o'zaro autentifikatsiya qilishni kafolatlaydigan ma'lumot almashinuvi qoidalari va jarayonlarini belgilaydi. Ushbu domen XTTning o'zi tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Karta saqlovchisi emitent domenida, savdo va xizmat ko'rsatish korxonasi esa ekvayer domenida bo'ladi, ular o'z navbatida o'rtalarida o'zaro aloqa domeni orqali o'zaro aloqa qilishadi.

Shunday qilib, uch domen modeli (3D), transaksiya ishtirokchilari autentifikatsiyasi jarayonini alohida qismlarga bo'lgan holda transaksiya ishtirokchilari barcha ehtimoliy algoritmlarining ba'zi to'plamlarini aniqlab, elektron tijoratning barcha protokollarining ko'pchiligini darhol chegaralaydi.

Shuningdek, EMITENT va EKVAYER domenlari o'rtasidagi autentifikatsiya jarayonlari emitent-bank va ekvayer-bank tomonidan belgilanishini inobatga olish lozim. XTT faqatgina, yuqorida aytilganidek, mijoz va savdo nuqtasi o'rtasidagi o'zaro aloqa amalga oshuvchi Interoperability Domain domenida ishlash qoidalarini belgilaydi. Ya'ni uch domen modeli autentifikatsiya qilish jarayonida barcha transaksiya ishtirokchilarining majburiyatlarini aniq belgilab beradi.(o'ziga xos vakolatlar taqsimoti)

O'rganilayotgan modelning asosiy va aniq ko'rinib turgan afzalligi EMITENT mijozining autentifikatsiyasini o'ziga qulay bo'lgan har qanday usulda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

6.2. TO'LOV TEXNOLOGIYALARINI TAVSIFLASH

(Visa kartalariga xizmat ko'rsatish misolida)

3D-Secure texnologiyasi asosida to'lovlarni amalga oshirish uchun KARTA SAQLOVCHISI uning xalqaro KARTAsini mobil telefonga bog'lash orqali qo'shimcha autentifikatsiyadan o'tkazilishi, ya'ni Verified by Visa dasturi ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

Internet tarmog'ida transaksiya o'tkazish vaqtida, do'kon markazlashgan manbaaga (EKVAYERning to'lov serveriga) transaksiyalarning asosiy belgilarini berish orqali karta saqlovchisi yuqoridagi dasturning ishtirokchisi ekanligini tekshirish uchun to'lov serverining maxsus Visa tizimi bilan aloqasini boshlab beradi.


Tasdiqlangan javob kelganda, EMITENTga KARTA SAQLOVCHIsining autentifikatsiyasiga so'rov yuboriladi. Ushbu so'rov emitentga emitent-bankning autentifikatsiya tizimi web-manziliga biriktirilgan belgilar qatori ko'rinishida yuboriladi.(belgilar xaridorning brauzeriga yuboriladi). Shu bilan xaridor o'z EMITENTNING autentifikatsiya tizimi manziliga o'tib ketadi.

TRANSAKSIYANI amalga oshirish vaqtida mijozga uning mobil telefoniga autentifikatsiya kodini o'z ichiga olgan SMS xabar jo'natiladi, bunda mijoz SSL shifrlash protokoli bilan himoyalangan maxsus web-manzilga tushadi, mijozdan bu manzilda olingan kodni kiritish (autentifikatsiyadan o'tish) talab qilinadi.

KARTA SAQLOVCHISINING shaxsi tasdiqlangandan so'ng EMITENTning autentifikatsiya tizimi ushbu bitimni tasdiqlovchi imzo vazifasini o'taydigan maxsus o'ziga xos raqamli belgini yuzaga keltiradi. Ushbu imzo to'lov serveriga yuboriladi va do'kon (to'lov serveri) o'zining EKVAYERIGA, u esa o'z navbatida emitent-bankka yuboradigan avtorizatsion so'rovning bir qismiga aylanadi. EMITENT imzoni tekshirib va kartaning to'lovga qobiliyatligiga ishonch hosil qilib transaksiyani tugatadi (tasdiqlaydi). Shunday qilib, EMITENT to'lov o'tkazilayotgan vaqtda karta saqlovchini autentifikatsiya qiladi va real vaqt rejimida xaridov haqiqatdan ham kartaning egasi yoki egasi emasligi haqida virtual do'konni xabardor qiladi.

Mana shu sxema tufayli Visa xalqaro kartalari bo'yicha hisob-kitoblar iste'mol nizolari va bitimni amalga oshirishni rad qilish kabi holatlardan himoyalangan bo'ladi.

Internetda to'lovlarni amalga oshirishning alohida bosqichlari 2 rasmda ko'rsatilgan.



2-Rasm. Internetda to'lov amalga oshirishning bosqichlarga bo'lingan uch domenlik sxemasi

1. Xaridor SXX Internet-do'konida zarur tovarlarni tanlaydi va buyurtmaning "savat"ini shakllantiradi.
2. MerchantPlug-In (MPI) qo'shimcha dasturiy moduli ushbu aniq kartani autentifikatsiya qilish mumkinligini aniqlash maqsadida XTT serverida ro'yxatdan o'tishni (VEReq) tekshirish so'rovini shakllantiradi.
3. Karta raqami 3D-Secure xizmatida ishtirok qilsa, Katalog Serveri tegishli ACS-Cerveriga karta unda ro'yxatdan o'tgan yoki o'tmaganligi bo'yicha so'rov yuboradi. (Aks holda, MPI moduli uchun ro'yxatdan o'tishni tekshirish haqida javob yaratiladi va qayta ishlov 5-bosqichdan davom etadi)

VeResning javobi Katalog Serveri tomonidan ushbu kartani autentifikatsiya qilib bo'lmazligi haqida xabarnoma bilan MPI moduliga yuboriladi. VeResning javobi agar server, karta raqami haqiqatdan ham ishtirok etuvchi kartalar diapazoniga taalluqli bo'lsa, shuningdek, 4 va 5 bosqichlarda tasvirlanganidek ACS-Serverdan Katalog Serveri orqali ham yuborilishi mumkin va so'rov tegishli ACS-Serverga yuboriladi.

4. ACS-Server Katalog Serveriga karta raqami uchun autentifikatsiya mumkin yoki mumkin emasligini belgilab, VEResning javobi bilan javob beradi.
5. Karta ishtirok qiluvchi karta raqamlari diapazoniga kirmasligi aniqlansa, Katalog Serveri VEResACS-serverning yoki VEResning o'z javobini MPI moduliga yo'naltiradi. Agar KARTA SAQLOVCHISI 3D-Secure da ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa yoki boshqa sabab bilan autentifikatsiya qilib bo'lmasa, avtorizatsiyaga oddiy so'rov yuborilgandan keyin jarayon ham nihoyasiga yetadi.
6. MPI moduli KARTA SAQLOVCHISINING autentifikatsiyasini bajarishga harakat qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim qilib, xaridorning brauzeri yordamida ACS-Serveri uchun to'lovchini (PAReq) autentifikatsiya qilishga so'rov yuboradi
7. ACS-Server PAReq so'rovini oladi.
8. ACS-Server xaridorni karta raqamiga tegishli ekanligi sifatida autentifikatsiyadan o'tkazadi (parol, chipli kriptogramma va PIN kabi usullardan foydalanishni qo'shgan holda) so'ngra tegishli belgilar bilan to'lovchini (PARes) autentifikatsiya qilishga javob xabarini shakllantiradi hamda raqamli imzo qo'yadi. PARes autentifikatsiya muvaffaqiyatli o'tganmi yo'qmi shuni belgilaydi.
9. ACS-Server PAResning javobini xaridorning brauzeri orqali MPI moduliga yuboradi. ACS-Server

PAResning javobi nusxasini autentifikatsiyalar tarixi Serveriga (AuthenticationHistoryServer) yo'naltiradi. Autentifikatsiyalar tarixi Serveri o'zaro aloqa domenida (InteroperabilityDomain) ishlovchi komponent bo'lib hisoblanadi; nizolarni yechish va boshqa maqsadlarda EKVAYER va EMITENT foydalangan faoliyatni arxivlashtiradi.

10. MPI moduli PAResning javobini oladi.
11. MPI moduli PARes javobining imzosini tasdiqlaydi. (yoki mustaqil tasdiqlab yoxud xabarni alohida tasdiqlash Serveriga yuborish orqali(ValidationServer))
12. SXX o'z EKVAYERI bilan avtorizatsiyalarni almashishni amalga oshiradi.

EKVAYER 12-bosqichga amal qilib XTT tarmog'i orqali EMITENT bilan AVTORIZATSIYAni jarayonlashtiradi va natijasini SXXga qaytaradi.

6.3. XAVFSIZLIK MASALALARI

1. Qo'llaniladigan AVTORIZATSIYA usuli Xaridorga kartasining to'lov rekvizitlari (raqami, amal qilish muddati, CVV2/CVC2) firibgarlar qo'lga tushib qolmasligini kafolatlaydi, chunki ushbu ma'lumotlar SXX Internet serverida saqlanmaydi va o'z navbatida u yerdan o'g'irlanishi mumkin emas.
2. Xaridor o'zining to'lov rekvizitlarini internet-do'konning saytida emas, balki, protsessing markazi to'lov serverining himoyalangan sahifasida kiritadi, o'z navbatida, Xaridor KARTASIning to'lov rekvizitlarini SXX xodimlari ko'ra olmaydi. Ushbu funktsionallik elektron tijorat TRANSAKSIYALARI uchun XTT xavfsizlik talablarining joriy etilishi hisoblanadi.
3. Yuboriladigan ma'lumotlarning xavfsizligi SSL protokolidan foydalanish orqali ta'minlanadi va shuning uchun ular aloqa kanallari orqali yuborilayotganda tutib olinishi mumkin emas.
4. Keyingi qayta ishlash uchun protsessing markazining MBda saqlanadigan KARTAning rekvizitlari haqidagi ma'lumotlar qo'shimcha shifrlanadi va faqatgina vakolatli xodimlar tomonidan o'qilishi mumkin.
5. Internet-do'kon va to'lov serveri o'rtasida to'lov ma'lumotlarini almashish xavfsizligi MAS-imzo mexanizmidan foydalanish orqali ta'minlanadi, bu jo'natiladigan ma'lumotlarni Xaridorning brauzeri orqali yuborishda ularni buzish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

7. SKX Internet saytining yaratilishiga qo'yiladigan talablar. Tovarni qaytarish, qayta aloqa va mijozning tovarni olganligini tasdiqlash siyosati.

- 7.1 SXX Internet saytni ishlab chiqishda bankning minimal talablarini inobatga olishi lozim. Ushbu talabga quyidagilar kiradi:
 - Saytda javobgar shaxslarni ko'rsatgan holda tovarni qaytarish, qayta aloqa siyosatini ishlab chiqish.
 - Ruxsatsiz hisobdan chiqarish holatlarida xaridorlarning shikoyatlari uchun Saytda bankning elektron manzilini ko'rsatish (email).
 - Tovarni yetkazishni kuzatish vositasi.
 - Tovarni va mablag'larni qaytarishga buyurtmanoma berish uchun havola.
 - Savdo nuqtasi to'lovchidan 3D Secure kodini so'rash imkoniyatini qo'llab-quvvatlashi kerak.
 - Foydalanuvchi (to'lovchi) akkuantining taym-auti zarur. 15 minut davomida haraktsiz bo'lsa (ko'rib chiqish uchun vaqt).
 - Mana bunday imkoniyatni ko'rib chiqish: Foydalanuvchi Visa kartasi rekvizitlariga ro'yxatga olinganda mobil raqamni yozib qo'yish. Ushbu kartadan transaksiya amalga oshirilganda sayt ushbu mobil raqamidan sms so'raydi.
- 7.2 SKX o'zining internet saytida transaksiyaning barcha detallarini 6 oy ichida saqlashi shart va bankning birinchi talabi bilan barcha kerakli ma'lumotlarni xizmat ko'rsatuvchi bo'linma yoki filialga taqdim qilishi kerak. Transaksiyaning detallari quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi shart:
 - Xaridorning F.I.Sh.
 - Tovarning nomi va miqdori.
 - Transaksiyaning sanasi va vaqti.
 - Avtorizatsiya va xarid qaysi IP manzildan o'tganligi.
 - Tovarning bahosi.
 - Xaridorning manzili, elektron pochta va telefoni.
 - Buyurtma raqami.
 - Sms tasdiq bilan biriktirilgan mobil raqam.

**Internet orqali xalqaro to'lov tizimi kartalarida elektron tijorat
xizmatlarini taqdim etish Tartibiga**

3-Ilova

OPERATSIYA O'TKAZISHGA ARIZA

(Mijozning va saytning/Internet-maydonchanning nomi)

Chiqim Operatsiyasi¹ Qisman bekor qilish² To'liq bekor qilish² Qaytarish²

“Kapitalbank” ATB _____ filiali Boshqaruvchisiga

I. Mablag'larni yechib olishga, qisman/to'liq bekor qilishga, qaytarishga topshiriq (keraksizi o'chirilsin)

To'lov tizimining nomi	
Buyurtma to'lov qilingan sana	
Buyurtma to'lov qilingan vaqt	
Burtma summasi	
Buyurtma raqami	
Kod terminala	
Avtorizatsiya kodi	
Xaridor kartasining oxirgi 4 ta raqami 4 posledniye sifry nomera karty pokupatelya	
Tranzaksiya summasi (raqam va so'z bilan):	

Mijoz nomidan:

Rahbar

_____ FISH

imzo

Bosh buxgalter

_____ FISH

imzo

M.O'.

201__y. “___” _____

¹Operatsiyani mustaqil amalga oshirishga texnik imkoniyat bo'lmasa yoki nostandart holatlarda rasmiylashtiriladi

²Mijoz tomonidan standart holatlarda ham nostandart holatlarda ham rasmiylashtiriladi.

Operatsiyani qisman/to'liq bekor qilish yoki qaytarishga buyurtmanoma rasmiylashtirilganda, bekor qilinishi/qaytarilishi lozim bo'lgan transaksiyalarning umumiy miqdori hisoblangandan so'ng ikkinchi qismi to'ldiriladi

II. Operatsiya qisman/to'liq bekor qilinsin; qaytarish operatsiyasi bekor qilinsin, operatsiya jarayoni boshlansin va h.k (keraksizi o'chirilsin)

Bekor qilingan/qaytarilgan transaksiyalar miqdori:	
Raqam, so'z bilan umumiy summa:	
Inkassatsiya qilingan paketning raqami	
Inkassatsiya qilingan paketning umumiy summasi, raqam, so'z bilan:	

201__y. “___” _____

Mijoz nomidan:

Rahbar

_____ FISH

imzo

Bosh buxgalter

imzo

FISH

M.O'. 201__y. "____" _____

**Internet orqali xalqaro to'lov tizimi kartalarida elektron tijorat
xizmatlarini taqdim etish Tartibiga**

4-Ilova

TA'QIQLANGAN TOVARLAR RO'YXATI

- Buzuq va pornografik xususiyatdagi tovarlar va/yoki xizmatlar.
- Alkogol va tarkibida spirt bo'lgan mahsulotlar (kam alkogolli ichimliklar ham)
- Tamaki va tamaki mahsulotlari.
- Litsenziyalanadigan faoliyat turlari, amal qilib turgan litsenziyalarsiz va/yoki maxsus ruxsatnomalarsiz.
- Ishlab chiqaruvchilar/yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomasi mavjud bo'lmagan vositachilik faoliyati.
 - Dori vositalari va tibbiy preparatlar, biologik faol qo'shimchalar (BFQ)
 - Tarixiy va madaniy boyliklar, muzey eksponatlari.
 - Amaldagi qonunchilik bilan ta'qiqlangan narkotik va psixotrop moddalar.
 - Ro'yxatga olingan tovar belgilari tovarlarning qisman yoki to'liq nusxasi hisoblangan tovarlar, veb-saytda (shuningdek tovarlarning o'zida) ushbu tovarlar nusxa ekanligini ko'rsatmasdan.
 - Tegishli litsenziyasiz (ro'yxatdan o'tmasdan) xayriya, badallar, ehsonlar.
 - Yetkazib beruvchilar (distribyutor) va/yoki mualliflik huquqi egalari bilan shartnomalarsiz raqamli tovarlarni sotish.
 - Qimor o'yinlarining barcha turlari (qonunchilikka asosan rasmiy ro'yxatga olingan lotoreyalardan tashqari)
 - Zo'ravonlikni, irqiy adovatni, terrorizmni va ekstremistik faoliyatni targ'ib qiluvchi mahsulot va materiallarni sotish hamda tarqatish.
 - Amaldagi qonunchilikka zid bo'lgan yoki ularga nisbatan cheklovlar yoki boshqa savdo qoidalari amalda bo'lgan tovarlar va/yoki xizmatlar.
 - Uchinchi shaxslarning foydasiga to'lov qilish, mablag'larni keyinchalik uchinchi shaxslarni tovarlari/xizmatlari uchun xarajat qilish bilan o'z "virtual" hisobvarag'ini to'ldirish, kirim qilingan pul mablag'lari, elektron valyutani almashish va/yoki ayirboshlash, shuningdek, "virtual" hisobvaraqdan pul mablag'larini chiqarish va/yoki naqdlashtirish xizmatlarini taqdim qiladigan to'lov tizimlari va/yoki savdo-xizmat ko'rsatish korxonalarini uchun to'lov vositalari agregatorlari.

Internet orqali xalqaro to'lov tizimi kartalarida elektron tijorat
xizmatlarini taqdim etish Tartibiga

5-Ilova

**Merchant application form.
Tashkilot faoliyati haqida shakl**

Corporation details. Tashkilot ma'lumotlari.	
Company Name Tashkilotning nomi.	
Registered address Yuridik manzili	
Post code and city Indeks va shahar	
Contact Person name, phone and email. Aloqa qiluvchi shaxs, ismi, telefon va pochta	
Bank account information – Bank hisobvarag'i ma'lumotlari	
Main Account Asosiy hisobvaraq	
Bank name Bank	
Account number Hisobvaraq raqami	
Bank branch MFO	
Swift code Swift	
Website details – Veb sayt ma'lumotlari	
Website name Veb saytning nomi	
Type of business Faoliyat turi	
IP Address IP Manzili	
Customer Support email Mijozlarni qo'llab-quvvatlash xizmati elektron manzili	
Chargeback notification email. Nizoli vaziyatlar bo'yicha elektron manzil	
How long have you been in business? Siz ushbu faoliyat bilan qachondan buyon shug'ullanasiz?	
Currently monthly sales volume. Bir oylik joriy hajm	
Current number of monthly transaction. Joriy transaksiyalarning bir oylik miqdori	

How do you receive your customer's order? Siz o'z buyurtmalarinizi qayerdan olasiz?	Internet _____ (%) Telephone order _____ (%)
SSL certificate, when, where and expire date. SSL sertifikat, qachon va kim tomonidan olingan, amal qilish muddati	
Technical contact name of web site, phone and email. Veb saytni aloqaga qiluvchi texnik shaxsi telefon va El. pochta	
Website content / Mahsulot/tovarlarning nomi.	
What is/ are the product/s or services sold on your website? Sizning veb saytingizda qanday turdagi tovarlar/mahsulotlar sotiladi?	
Min / average / max price of goods / services on the site Saytdagi tovarlar/xizmatlarning eng kam/o'rtacha/en ko'p bahosi	
Describe the terms of delivery of goods, and the terms of the service. Tovarni yetkazib berish yoki xizmatlar ko'rsatish shartlarini tasvirlab bering.	
Describe the terms of return policy or cancel services. Tovarni qaytarib berish yoki xizmatlarni bekor qilish shartlarini tasvirlab bering.	
Do you send an email receipt to the cardholder when the product delivered? Describe for example. Tovar yetkazilganda mijozga bildirishnoma yuborasizmi? Misol keltiring	